



TAZYIQ VA ZO‘RAVONLIKKA UCHRAGAN BOLALARGA PSIXOLOGIK YORDAM

Xizirova Mukhayyo Obidjonovna

Asaka tumani “Inson” ijtimoiy xizmatlar markazi

Psixologi

Annotatsiya. *Tazyiq va zo‘ravonlikka uchragan bolalarning psixologik himoyasi bugungi kunda nafaqat psixologiya fanining, balki jamiyat taraqqiyoti va ijtimoiy barqarorlikning eng muhim masalalaridan biri hisoblanadi. Oilada, maktabda yoki ijtimoiy muhitda turli ko‘rinishdagi tazyiq (psixologik, emotsional, iqtisodiy, ijtimoiy) hamda zo‘ravonlik (jismoniy yoki jinsiy) bolalarning shaxs sifatida shakllanishiga, emotsional holatiga, ijtimoiy moslashuvchanligiga salbiy ta’sir ko‘rsatadi. Bunday bolalar ko‘pincha qo‘rquv, past o‘zini baholash, ishonchsizlik, tashvishlanish, tajovuzkorlik yoki depressiv holatlarni boshdan kechiradilar. Shu bois ushbu jarayonda psixologik yordam ko‘rsatish tizimi muhim ahamiyat kasb etadi.*

Psixologik yordamning asosiy maqsadi bolada xavfsizlik hissini tiklash, stress holatini bartaraf etish, ruhiy barqarorlikni shakllantirish hamda salbiy kechinmalarning ijtimoiy-psixologik oqibatlarini kamaytirishdan iborat. Bu yo‘lda art-terapiya, kognitiv-behavioral terapiya, emotsional qo‘llab-quvvatlash, sand-terapiya, o‘yin terapiyasi kabi zamonaviy psixologik metodlar qo‘llaniladi. Shu bilan birga, psixologning oilaviy maslahatlar orqali ota-onalar bilan ishlashi va ijtimoiy xizmatlar bilan hamkorlik qilishi muhimdir. Ushbu yondashuv tazyiq va zo‘ravonlikdan jabr ko‘rgan bolalarning psixologik rehabilitatsiyasida kompleks yondashuvning ahamiyatini ko‘rsatadi.

Kalit so‘zlar: *tazyiq, zo‘ravonlik, bola psixologiyasi, psixologik yordam, stress, rehabilitatsiya, art-terapiya, o‘yin terapiyasi, travma, emotsional qo‘llab-quvvatlash.*



Bugungi globallashuv sharoitida jamiyat taraqqiyoti nafaqat iqtisodiy yuksalish, balki inson manfaatlari, ayniqsa, bolalar huquqlari va ularning psixologik himoyasini ta'minlash bilan ham bevosita bog'liqdir. Bolalik davri inson hayotining eng nozik, qadrli va mas'uliyatli bosqichlaridan biri bo'lib, ushbu davrda shaxsning xarakteri, irodasi, hissiyati, ijtimoiy moslashuvi va hayotga munosabati shakllanadi. Shu bois bolalarning psixologik salomatligini muhofaza qilish, ularning xavfsiz muhitda yashashi va rivojlanishiga sharoit yaratish har bir davlatning ijtimoiy siyosatida ustuvor yo'nalishlardan biri sifatida e'tirof etilgan.

Afsuski, oxirgi yillarda dunyo miqyosida bolalarga nisbatan turli ko'rinishdagi tazyiq va zo'ravonlik holatlari ko'payib bormoqda. Zo'ravonlik faqatgina jismoniy kuch ishlatish bilan cheklanmay, balki ruhiy, ijtimoiy, iqtisodiy, jinsiy tazyiq kabi murakkab shakllarda ham namoyon bo'lmoqda. Bunday salbiy ta'sirlar bolaning psixikasiga kuchli zarba berib, unda ruhiy stress, depressiya, o'ziga ishonchsizlik, tajovuzkorlik, qo'rquv sindromi, o'qishga qiziqishning pasayishi, shuningdek, kelajakda jamiyatga moslasha olmaslik kabi chuqur psixologik muammolarni yuzaga keltiradi. Shu ma'noda zo'ravonlik qurboni bo'lgan bolalarga psixologik yordam ko'rsatish nafaqat individual, balki ijtimoiy ahamiyatga ham ega bo'lgan dolzarb masaladir.

Bolaga nisbatan sodir etilgan tazyiq va zo'ravonlikning oqibatlarini bartaraf etishning eng muhim omillaridan biri — o'z vaqtida psixologik yordamni yo'lga qo'yishdir. Vaqtida va to'g'ri tashkil etilgan psixologik yordam bolaning ruhiy tiklanishiga, o'zini himoya qilish ko'nikmalarini shakllantirishga, xavfsizlik hissini qayta tiklashga yordam beradi. Shu bois bu yo'nalish bugungi kunda pedagogika, psixologiya, ijtimoiy ish va huquq sohalari kesishgan majmuaviy ilmiy-amaliy muammo sifatida keng tadqiq etilmoqda.

O'zbekiston Respublikasida bolalar huquqlarini himoya qilish, ularni tazyiq va zo'ravonlikdan asrash bo'yicha davlat siyosati izchil amalga oshirilmoqda. Xususan, "Bola huquqlarining kafolatlari to'g'risida"gi Qonun (2008), "Ayollar va erkaklarning teng huquq va imkoniyatlari kafolatlari to'g'risida"gi Qonun (2019), "Xotin-qizlarni tazyiq va zo'ravonlikdan himoya qilish to'g'risida"gi Qonun (2019),



shuningdek, “Vosita va muhofaza orderi to‘g‘risida”gi qonuniy chora-tadbirlar ushbu sohada huquqiy asos bo‘lib xizmat qiladi. 2021-yilda Prezident tashabbusi bilan “Zo‘ravonliksiz muhit” konsepsiyasining joriy etilishi, har bir tumanda “Inson” ijtimoiy xizmatlar markazlari tashkil etilishi esa bolalarga psixologik yordam ko‘rsatish tizimini rivojlantirishda muhim bosqich bo‘ldi.[2]

Shuningdek, hukumatning 2025-yil 14-iyuldagi 440-sonli qarori bilan “Bolalarga nisbatan zo‘ravonlik holatlarini aniqlash, zo‘ravonlik xavfi darajasini baholash, himoya qilish rejasini ishlab chiqish hamda uni amalga oshirish tartibi to‘g‘risida”gi nizom tasdiqlandi.

Mazkur Nizomga muvofiq, zo‘ravonlikdan jabrlangan yoki o‘ziga nisbatan zo‘ravonlik sodir etilishi xavfi ostida bo‘lgan bolalar bevosita o‘zlari yoki ularning qonuniy vakillari orqali “Inson” markazlari, ichki ishlar organlari va boshqa mas’ul organlarga murojaat qilish huquqiga ega.

“Inson” markazlari ichki ishlar organlari ishtirokida bolaning hayotiy vaziyatini bir kun muddatda o‘rganadi. Ushbu jarayonda markaz bolaga nisbatan hayoti yoki sog‘lig‘iga tahdid soluvchi omillarni dastlabki baholashdan o‘tkazadi hamda xavf darajasini “past” yoki “yuqori” sifatida belgilaydi.

Agar xavf darajasi “yuqori” deb baholansa, ichki ishlar organi quyidagi choralarni ko‘rishi mumkin:

- zo‘ravonlik sodir etgan shaxsni ma‘muriy yo‘l bilan ushlab turish yoki protsessual majburlov choralari qo‘llash;
- bolaga yoki uning qonuniy vakiliga himoya orderi berish;
- bolani ota-onasidan (yoki ulardan biridan) yoki uni o‘z qaramog‘iga olgan boshqa shaxslardan ajratib olish hamda uning xavfsizligini ta‘minlash.

Tahdid soluvchi omillar bartaraf etilgach, “Inson” markazi bolaning hayotiy vaziyatini 14 kalendar kun ichida kompleks baholashdan o‘tkazadi.

Kompleks baholash natijalariga ko‘ra, 3 ish kuni ichida bolani himoya qilish rejasini ishlab chiqiladi.

Zo‘ravonlik sodir etgan yoki shunday harakatga moyil bo‘lgan shaxslarga quyidagi ta’sir choralari qo‘llanilishi mumkin:



- tuzatish dasturidan o'tish;
- bolalarni vaqtinchalik olib qo'yish;
- ota-onalik huquqini cheklash yoki mahrum etish;
- narkologiya muassasalarida majburiy davolanish;
- majburiy tibbiy yo'sindagi majburlov choralarini tayinlash.

Mazkur Nizom bolalarni har qanday shakldagi zo'ravonlikdan himoya qilish, ularning hayoti va sog'lig'ini saqlash hamda huquq va manfaatlarini ta'minlashga qaratilgan muhim huquqiy hujjat hisoblanadi.

Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, zo'ravonlik qurboni bo'lgan bolalar ko'pincha ichki tajovuz, qo'rquv, xavotir, yolg'izlik hissini boshdan kechiradi. Odatda bunday bolalar o'zlariga nisbatan tazyiqni boshqalar bilan bo'lishishdan uyaladilar yoki qo'rqadilar. Ba'zida ular bo'layotgan voqea odatiy jarayon deb o'ylab, zo'ravonlikni tan olmaydilar. Shuning uchun ham psixologik yordam metodikasi bolaning yoshiga, psixologik holatiga va zo'ravonlik shakliga qarab individual tarzda tashkil etilishi kerak. Har bir holat bo'yicha tizimli diagnostika o'tkazish, ota-onalar yoki vasiylar bilan ishlash, maktab psixologlari faoliyatini kuchaytirish, ijtimoiy xizmat ko'rsatish markazlari va mahalli maslahat kengashlari bilan hamkorlik qilish katta ahamiyat kasb etadi.

Tazyiq va zo'ravonlik muammosi faqat ijtimoiy zaif oilalarda emas, balki iqtisodiy jihatdan barqaror, hatto ziyoli oilalarda ham kuzatilmoqda. Ayniqsa, oiladagi nizolar, ajrimlar, ichkilikbozlik, migratsiya, ijtimoiy nazoratning sustligi, oilaviy tarbiyaning yetarli emasligi bolalarga nisbatan ruhiy va jismoniy tazyiqning kuchayishiga sabab bo'lmoqda.

Bundan tashqari, maktablarda bolalar o'rtasida tengdoshlar zo'ravonligi (bullying), kamsitish, haqoratlash, tahqirlash, internet orqali zo'ravonlik (cyberbullying) kabi yangi ko'rinishlar keng tarqalmoqda. Zamonaviy axborot makonining cheksizligi bolalarni psixologik himoyasiz qoldirmoqda, ularning ongiga salbiy axboriy ta'sir o'tkazmoqda. Shu bois pedagoglar, psixologlar, ota-onalar va ijtimoiy xodimlar o'rtasidagi hamkorlik bugungi davr zaruriyatiga aylangan.



Tazyiqqa uchragan bolalarga psixologik yordam ko'rsatish jarayoni murakkab va uzoq muddatli bo'lib, bunda asosiy e'tibor bolaning shaxsiy tajribasini bir maromga keltirish, hissiy barqarorligini tiklash, unga ijobiy psixologik qo'llab-quvvatlash muhitini yaratishga qaratiladi. Shu bilan birga, bunday bolalarda qayta reabilitatsiya va ijtimoiy moslashuv mexanizmlarini shakllantirish, ularni o'z tengdoshlariga qo'shish hamda hayotga optimistik qarashni rivojlantirish muhimdir. Bu esa professional psixolog tomonidan tizimli pedagogik-psixologik yondashuv asosida amalga oshirilishi lozim.

Zo'ravonlik muammosini o'rganish psixologik nazariya va amaliyotning dolzarb yo'nalishlaridan biri bo'lib, bu borada jahon psixologiyasida turli ilmiy maktablar shakllangan. A. Adlarning individual psixologiya nazariyasi tazyiqqa uchragan bolalarda pastlik kompleksi shakllanishini ta'kidlasa, Z. Freyding psixoanaliz nazariyasi travmatik tajribalarning ongsiz xotirada saqlanib qolishi va keyingi hayotga ta'sir etishini isbotlagan. K. Rodjersning gumanistik psixologiyasi esa qo'llab-quvvatlovchi ijtimoiy muhit bolaning ruhiy tiklanishida asosiy omil ekanini ta'kidlaydi. Mahalliy psixologiyada ham mazkur masala A. Karimov, B. Xodjayev, S. Rashidova, M. Pardaev, S. Mahmudov kabi olimlar tadqiqotlarida muhim o'rin egallagan.[3]

Shunga qaramay, bugungi kunda bolalarga nisbatan zo'ravonlikning oldini olish va ularga psixologik yordam ko'rsatish borasida hal qilinishi zarur bo'lgan bir qator muammolar mavjud. Bular qatoriga, aholining psixologik savodxonligi pastligi, erta nikohlar, bolalar mehnatidan noqonuniy foydalanish, oilaviy ajrimlar sonining ko'payishi, ijtimoiy xizmatlar samaradorligining yetarli darajada emasligi, psixologlar malakasini oshirish zaruriyati kiradi. Shu bois ushbu mavzuni chuqur ilmiy tahlil qilish, muammo ildizini aniqlash va yechimlarni taklif etish bugungi kunning muhim vazifalaridan biri sifatida namoyon bo'ladi.

Insoniyat tarixining turli bosqichlarida zo'ravonlik hodisasi jamiyat hayotida mavjud bo'lib kelgan ijtimoiy illatlardan biri hisoblangan. Bugungi kunda esa u global darajadagi ijtimoiy-psixologik muammolar sirasiga kiradi. Ayniqsa, bolalarga nisbatan zo'ravonlikning ko'payishi sotsiologlar, psixologlar, pedagoglar



hamda xalqaro tashkilotlarning jiddiy tashvishiga sabab bo'lmoqda. Bolalik davri shaxsning shakllanishida eng mas'uliyatli bosqich bo'lishiga qaramay, aynan shu davrda bolalar turli ko'rinishdagi tazyiq va zo'ravonliklarga duch kelishi ehtimoli yuqori hisoblanadi. Shu sababdan ushbu tushunchaning mazmun-mohiyatini ilmiy jihatdan aniqlash dolzarb ahamiyat kasb etadi.

Zo'ravonlik (violence) tushunchasi yunon tilidagi "vis" so'zidan kelib chiqqan bo'lib, kuch ishlatish, tazyiq o'tkazish, erkinlikni cheklash kabi ma'nolarni anglatadi. Psixologik adabiyotlarda zo'ravonlik – bu bir shaxs tomonidan ikkinchi shaxsga nisbatan jismoniy yoki ruhiy zarar yetkazishga qaratilgan ongli harakatlar majmui sifatida talqin etiladi. Birlashgan Millatlar Tashkilotining 1989 yilgi "Bola huquqlari to'g'risida"gi Konvensiyasida qayd etilishicha, zo'ravonlik – bu bolaning jismoniy, ruhiy, axloqiy yoki ijtimoiy salomatligiga zarar yetkazuvchi har qanday tajovuz yoki kamsitishdir.[4]

Tazyiq esa zo'ravonlikning yumshoq ko'rinishlaridan biri bo'lib, ko'proq psixologik bosim, tahdid, haqorat, kamsitish, nazorat qilish kabi nozik, biroq salbiy ta'sir ko'rsatadigan ijtimoiy hodisa sifatida o'rganiladi. Psixolog olimlar fikricha, tazyiqning xavfli tomoni shundaki, u ko'pincha sezilmaydi, isbotlash qiyin, lekin bola ruhiyatida chuqur iz qoldiradi. Shu bois, bugungi ilmiy adabiyotlarda tazyiq ham zo'ravonlikning tarkibiy qismi sifatida baholanadi.

Pedagogik nuqtai nazardan qaralganda, tazyiq va zo'ravonlik bolaning tabiiy rivojlanish jarayonini buzadigan, uning ta'lim-tarbiya jarayonida passivlik, befarqlik va ijtimoiy izolyatsiyaga olib keladigan omildir. Bu holat bolaning intellektual salohiyatini to'liq namoyon eta olmasligiga, shuningdek, tarbiyaviy jarayondan chetlashishiga sabab bo'ladi. Shuning uchun mazkur hodisa nafaqat psixologik, balki pedagogik muammo sifatida ham ko'riladi.

Bolalarga nisbatan tazyiq va zo'ravonlik ko'rinishlari turlicha bo'lib, ularning har biri bola psixikasiga turli yo'nalishda salbiy ta'sir ko'rsatadi. Zamonaviy psixologiya fanida zo'ravonlik quyidagi shakllarga ajratiladi:



Jismoniy zo‘ravonlik (Physical violence) – kaltaklash, turtish, ko‘krakka musht bilan urish, qo‘llarini bog‘lash, jarohat yetkazish kabi kuch ishlatishga asoslangan harakatlar.

Ruhiy tazyiq (Psychological abuse) – haqorat qilish, mensimaslik, kamsitish, doimiy tanqid ostida saqlash, qo‘rqitish, nazoratda ushlab turish yoki sevgi va e‘tibordan mahrum etish.

Jinsiy zo‘ravonlik (Sexual violence) – bolaning irodasiga zid ravishda jinsiy aloqa yoki jinsiy xatti-harakatlarga majburlash, pornografik materiallarni ko‘rsatish kabi noqonuniy harakatlar.

Ijtimoiy tazyiq (Social abuse) – bolani tengdoshlar orasida kamsitish, uni izolyatsiya qilish, doimiy bosim ostida saqlash, maktab yoki oilada e‘tiborsiz qoldirish.

Iqtisodiy tazyiq (Economic abuse) – bolaning moddiy ta‘minotini cheklash, uni mehnat ekspluatatsiyasiga majburlash, pul yoki ta‘lim resurslarini berishni rad etish.

Axboriy zo‘ravonlik (Cyberbullying) – internet orqali haqorat qilish, shaxsiy ma‘lumotlarini tarqatish, ijtimoiy tarmoqlarda kamsitish.

Bolalarga nisbatan tazyiq va zo‘ravonlikning kelib chiqish sabablari ko‘p qirrali bo‘lib, ular ijtimoiy, psixologik, iqtisodiy hamda madaniy omillar bilan chambarchas bog‘liqdir. Zo‘ravonlikning manbalari mikro va makro darajalarda namoyon bo‘ladi. Mikro daraja — bu oilaviy muhit, maktab jamoasi, tengdoshlar guruhi, yirik ijtimoiy munosabatlar tizimi esa makro darajani tashkil etadi.

Zo‘ravonlikning asosiy manbalari:

Oilaviy nizolar va noto‘g‘ri tarbiya[5]

Statistik ma‘lumotlarga ko‘ra, bolalarga nisbatan zo‘ravonlikning eng ko‘p uchraydigan manbai aynan oiladir. Oiladagi nizolar, janjallar, tarbiyaviy nazoratning yetishmasligi yoki haddan tashqari avtoritar yondashuv bolalarni tazyiq ostida yashashga majbur qiladi. Ba‘zi ota-onalar bolani tarbiyalashda zo‘ravonlikni “tarbiya usuli” sifatida noto‘g‘ri talqin qiladilar. Bu pedagogik savodsizlik va psixologik yetuklikning yetishmasligidan dalolat beradi.



Qashshoqlik, ishsizlik, migratsiya va ijtimoiy beqarorlik bolalarning xavf guruhiga tushishiga sabab bo'ladi. Bunday oilalarda emotsional tarbiya ikkinchi darajaga tushib qoladi, bolalarga mehr va psixologik qo'llab-quvvatlash yetishmaydi. Natijada bolalarning ruhiy ehtiyojlari qondirilmaydi va ular tazyiq hamda zo'ravonlik muhitida yashashga majbur bo'ladilar.

Ba'zan maktab yoki kollejlari kabi ta'lim muassasalarida ham zo'ravonlik holatlari uchray turadi. Bu o'qituvchilarning avtoritar yondashuvi, sinfdoshlar tomonidan kamsitish, "bullying" (tengdoshlar zo'ravonligi) jarayonlari natijasida yuzaga keladi. Agar maktabda psixologik xizmat yetarli bo'lmasa, bu jarayonlar kuchayishi va bola ruhiyatida chuqur iz qoldirishi mumkin.

XX asr oxiri va XXI asr boshidan boshlab axborot texnologiyalari taraqqiyoti inson psixikasiga kuchli ta'sir o'tkaza boshladi. Zo'ravonlikni targ'ib qiluvchi filmlar, kompyuter o'yinlari, ijtimoiy tarmoqlardagi tahdidli kontent bolalarning ruhiyatini salbiy shakllantiradi. Ayniqsa, internet makonida tarqalgan "cyberbullying" bolalarning xavfsizlik hissini pasaytiradi, ular o'zlarini jamiyatdan chetlatilgandek his qila boshlaydi.

Ayrim jamiyatlarda tazyiq va zo'ravonlik "oilaviy sir" sifatida qabul qilinadi. Bolaning yig'lashi, qo'rquvi, ichki noroziligi odatiy hol sifatida talqin etilib, ularga yetarlicha e'tibor berilmaydi. "Bolani urgan odam yaxshi ko'radi", "ota-onaning qo'lini bola o'pib o'sadi" kabi noto'g'ri qarashlar tazyiqning chuqurlashuviga olib keladi.

Zo'ravonlikning psixologik sabablariga quyidagilar kiradi:

- ota-onalarning shaxsiy stressi va agressiv kayfiyati;
- oilada mehr-muhabbatning yetishmasligi;
- noto'g'ri tarbiya uslublari (avtoritar, befarq, qat'iy nazorat qiluvchi);
- kattalarning o'z bolalik davrida zo'ravonlik qurboni bo'lganligi;
- hissiy intellektning pastligi;
- empatiya yetishmasligi;
- ijtimoiy mas'uliyatning sustligi.[6]



Demak, zo‘ravonlikning kelib chiqish sabablari murakkab bo‘lib, uni faqat bitta omil bilan izohlab bo‘lmaydi. Bu hodisani kamaytirish uchun oilaviy tarbiya madaniyatini oshirish, maktab psixologik xizmatini kuchaytirish, ommaviy axborot vositalarining ijtimoiy mas‘uliyatini oshirish, eng muhimi, profilaktika tizimini yo‘lga qo‘yish zarur.

Xulosa qilib aytganda, O‘zbekiston misolida tahlil qilganda, zo‘ravonlikning oldini olish va unga barham berishda davlat siyosati bilan bir qatorda, mahalla va ta‘lim tizimining ham o‘rni muhim hisoblanadi. Chunki bolalar ko‘proq vaqtini oilada, maktabda va mahalla hududida o‘tkazadi. Shu sababli, ushbu ijtimoiy institutlar o‘zaro hamkorlik qilgan holda bolalarning huquqlarini himoya qilishi zarur. Afsuski, amaliyot shuni ko‘rsatadiki, ba‘zan bolaga nisbatan tajovuz qilish aynan shu tizimlar ichida sodir bo‘ladi yoki ularning befarqligi tufayli vaqtida aniqlanmaydi. Bu esa muammoni yanada murakkablashtiradi.

Mahalliy darajadagi tahlillar shuni ko‘rsatdiki, aksariyat oilalarda zo‘ravonlik holatlari yashirin xarakterga ega. Bu holat jamiyatda “uydagi gap – uydan chiqmasin” tamoyilining saqlanib qolishi bilan bog‘liq. Ba‘zan ota-ona o‘z farzandining haqiqiy hissiy ehtiyojini tushunmaydi va uni tarbiyalashda tazyiq usullarini qo‘llaydi. Ular uchun bu odatiy tarbiya ko‘rinishi bo‘lib tuyuladi, ammo aslida bu bolaning psixik tizimini izdan chiqaradigan xavfli omildir. Tazyiqning psixologik shakllari – qo‘rqitish, kamsitish, mensimaslik, tahdid qilish yoki erkinlikni cheklash kabi holatlar bolaning o‘zini qadrsiz his qilishiga olib keladi. Bunday bolalar o‘z his-tuyg‘ularini yashirishga o‘rganib qoladi, boshqalarga ishonmay qo‘yadi va ularning ruhiyati sinadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Xotin-qizlar va bolalarni qo‘llab-quvvatlash tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ–4818-son qarori. 2020-yil 1-sentabr. – B. 2–5.
2. Ergasheva D. Oilada tarbiya va psixologik muhitning shakllanishi. – Toshkent: O‘qituvchi, 2019. – B. 88–93.
3. Sharipova N. Bolalar psixologiyasi. – Toshkent: Fan, 2020. – B. 112–118.



4. Vohidov R. Pedagogik psixologiya asoslari. – Toshkent: TDPU nashriyoti, 2018. – B. 54–59.
5. Rasulova D. Zo‘ravonlik qurboni bo‘lgan bolalar bilan ishlash metodlari // Psixologiya va ijtimoiy hayot jurnali. – Toshkent, 2021. – №3. – B. 23–27.
6. Xushboqova S. Bolaning ruhiy rivojlanishida oilaviy omillar. – Toshkent: Innovatsiya-Ziyo, 2022. – B. 40–46.
7. Mustafoyeva Z. Psixokorreksiya mashg‘ulotlari metodikasi. – Toshkent: TDPU, 2021. – B. 51–57.
8. Hakimova N. Bolalarda stress va uni yengish mexanizmlari // Zamonaviy psixologiya jurnali. – 2022. – №4. – B. 13–18.